

## OILA TINCHLIGI – JAMIYAT FAROVONLIGI ASOSI

Muhammadiyeva Gulnoza Zarif qizi

Termiz davlat pedagogika instituti Boshlang`ich ta`lim fakulteti 1-bosqich talabasi

Xoliqova Parvina Abdumalik qizi

Ilmiy rahbar, Termiz davlat pedagogika instituti

### **ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada jamiyatning muhim bo`g`ini bo`lgan oilalar,oilaviy munosabatlar, yosh avlod tarbiyasida ota-onalarning ahamiyati va o`rni, sharq mutafakkirlarining oilaviy munosabatlarni yo`lga qo`yish haqida bildirilgan purma`no so`zlari borasida ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so`zlar:** oila, jamiyat, tarbiya, faravonlik, mahalla, huquq

Ma`lumki, jamiyatning muhim bo`g`ini bo`lgan oilalar qanchalik tinch va totuv bo`lsa, shundagina davlat tinch va barqaror ravnaq topishi mumkin. Shu jihatdan, oila qo`rg`onining mustahkamligi va unda ma`naviy jihatlarning shakllanishi hamda amalga oshirilishi muhim ahamiyatga ega. **Oila - jamiyatning asosiy bo`g`ini muqaddas maskan. Mamlakat hayotini harakatga keltiruvchi asosiy hujjat – Bosh qomusimizda oilaga alohida urg`u berib o`tilgan.** Konstitutsiyamizda oila jamiyatning bo`g`ini ekanligi va har bir oila davlat muhofazasida ekanligi to`g`risida ta`kidlab o`tilgan. Har qanday davlatning ma`naviyatini yuksaltirish va uni tanitishda oilaning ahamiyati kattadir.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev joylarda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning borishi, amalga oshirilayotgan buniyodkorlik va obodonlashtirish ishlari bilan yaqindan tanishish, xalq bilan muloqot qilish maqsadida 2018-yilning 19—20-yanvar kunlari Surxondaryo viloyatiga tashriflari davomida 19-yanvar kuni xalq deputatlari Surxondaryo viloyati kengashining navbatdan tashqari sessiyasi bo`lib o`tdi. Sessiyada O`zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ishtirok etdi. Videoselektor shaklida o`tgan sessiyada davlat rahbari shunday nutq so`zladilar.

«Eng

katta baxt, men buni ming marta qaytarishdan charchamayman, oilamiz tinch bo`lsin! Oila kichik vatan, oila tinch bo`lsa, baxtli bo`lsa, vatan tinch bo`ladi. O`sha baxtli kunlarni, vatanimizning, yoshlarimizning kamolini hozir niyat qilayotganimiz kabi ko`rish hammamizga nasib etsin!», — deya ta`kidlaganlar muhtaram yurtboshimiz.

Oilani muqaddas maskan sifatida e`zozlash, oilada tinchlik-osoyishtalik, farovonlik muhitini qaror toptirish xalqimizga azaldan xos bo`lgan fazilatlardir. Oila va oilaviy qadriyatlar har qanday inson hayotida quriladigan eng muhim poydevor hisoblanadi.

Shaxsning shakllanishi oilada boshlanadi. Oilaviy qadriyatlar yaxlit tabiatning uyg'un rivojlanishi uchun zarur ko'nikmalarni singdiradi.

Prezidentimizning joriy yil 2 fevraldagi "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni bilan milliy hamda ma'naviy qadriyatlarimiz asosida ushbu sohada yillar davomida to'planib qolgan, e'tibordan chetda qolib kelgan muammolar yechimi yuzasidan tegishli davlat organlari hamda jamoat tashkilotlari oldiga eng muhim va dolzarb vazifalar qo'yildi. Mazkur Farmonga binoan, Vazirlar Mahkamasi huzurida "Oila" ilmiy-amaliy tadqiqot markazi oila instituti sohasida yagona davlat siyosatini yurituvchi tizim sifatida tashkil etildi. Markazning asosiy vazifasi davlat va jamoat tashkilotlari, parlament, siyosiy partiylar, ommaviy axborot vositalari hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini O'zbekiston oilalarini mustahkamlash g'oyasi atrofida birlashtirish, bu boradagi ishlarni muvofiqlashtirib borish, mamlakatda faqat sog'lom oila — sog'lom jamiyat ustuni bo'la olishini aholi ongiga singdirish, ilmiy-innovatsion tadqiqotlarni amalga oshirish orqali oila institutini mustahkamlash etib belgilangani mamlakatimizda bu borada mutlaqo yangi bosqichdagi sa'y-harakatlar boshlanganidan dalolat beradi.

Shu o'rinda alohida ta'kidlash joiz, joriy yilning 27 iyun kuni Prezidentimiz qarori bilan O'zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash kontseptsiyasi va uni amalga oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi" tasdiqlangani ham yurtimizda oilalar farovonligi uchun davlat hamda jamiyat astoydil qayg'urayotganining hayotiy ifodasi bo'ldi.

Ushbu Kontseptsiyani amalga oshirishdan ko'zlangan asosiy maqsad mamlakatimizdagи har bir oilaning huquq va manfaatlarini to'liq ro'yobga chiqarish, ular uchun munosib turmush sharoitini yaratish, oilaviy munosabatlar muvozanatini ta'minlash, oila farovonligini oshirish, muxtasar aytganda, oila institutini har tomonlama qo'llab-quvvatlagan holda, davlatimizning izchil va barqaror taraqqiyotiga erishishdir.

Boy ilmiy-madaniy merosimiz, qadimiy urf-odat hamda an'analarimizdan ayonki, har qanday zamon va makonda ham oila biz uchun muqaddas qadriyat sanalgan. Binobarin, tarbiyaviy, ma'naviy-ma'rifiy, ruhiy-axloqiy, iqtisodiy-huquqiy munosabatlarga asoslangan ijtimoiy birlik hisoblanmish oila qanchalik mustahkam bo'lsa, jamiyat ham shunchalik barqaror taraqqiy etishini ajdodlarimiz juda yaxshi anglashgan. Shu bois ota-bobolarimiz oilaga juda katta e'tibor bilan qarashgan. Buyuk allomalarimiz Mahmud Koshg'ariy, Ahmad Yugnakiy, Kaykovusdan tortib Beruniy, Ibn Sino, Forobiy, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug'bek va boshqalargacha o'z asarlarida oilaviy masalalar, xususan, oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, bola tarbiyasida ota-onas, bobo-buvining o'rni, komil va vatanparvar shaxsni yetishtirishda bu muhim ijtimoiy institutning roliga alohida yondashib, ibratli hikoyatlar, rivoyatlar, farzandlarga maktublar, hikmatli so'zlar, she'riy satrlar orqali pand-nasihatlar, hayotiy xulosalar yozib qoldirganlar. Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Munavvarqori Abdurashidxonov kabi

ma'rifatparvarlarimiz ham odob-axloqi go'zal, jismonan va ma'nан yetuk avlodni tarbiyalashning yagona yo'li -barqaror oila qurish ekanini, oilani mustahkamlamasdan davlat va jamiyat taraqqiyotiga erishib bo'lmasligini ta'kidlashgan. Ma'naviy jihatdan bir-biriga sabr qilish lozim bo'lganiday, moddiy jihatdan ham qanoatli va sabrli bo'lish juda muhimdir. Oilaning tinch, farzandlarning baxtli bo'lishligida er-xotinning har ikkisi ham oiladagi o'z burchlarini astoydil ado etishga intilishlari muhimdir. Mustahkam va saodatli oilada er-xotin o'zaro totuv yashashi bir-birining yaxshi va yomon jihatlarini ko'tarishi, ayb va kamchiliklarini kechirishi, tinch va totuv yashashi lozim.

Shu o'rinda, yuqorida nomlari tilga olingan va boshqa jahon ilm-fani va madaniyati xazinasiga munosib hissa qo'shgan yuzlab allomai zamonlar, millat ozodligi uchun kurashgan xalqimiz qahramonlarini oqila, fozila momolarimiz oila bag'rida tarbiya qilganini ta'kidlash joiz. Bu, o'z navbatida, oila atalmish ijtimoiy institutning davlat va jamiyat ha yotida tutgan rolini tasavvurimizda yanada yorqinlashtirishi barobarida, uning tinch, mustahkam va farovon bo'lishi, farzandlar tarbiyasida xotin-qizlarning o'rni va ta'siri beqiyos ekanini yaqqol namoyon etadi.

Oilada erkak kishining mas'uliyati alohida qayd etilgan. Sharqda qadim-qadimdan oila muqaddas go'sha sanalgan. Agar oila sog'lom va mustahkam bo'lsa, mahallada tinchlik va hamjihatlikka erishiladi. Binobarin, mahalla-yurt mustahkam bo'lsagina, davlatda osoyishtalik va barqarorlik hukm suradi. Oila farovonligi – milliy farovonligidir.

Bugun yurtimizda 8,5 millionga yaqin oila istiqomat qilmoqda. So'nggi yillarda muhtaram Prezidentimiz rahbarligida oila institutini mustahkamlash, oilalarda sog'lom va barqaror ijtimoiy-ma'naviy muhitni qaror toptirish, gender tenglikka erishish, ayniqsa xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va jamiyat hayotidagi faolligini oshirish borasida tizimli ishlar amalga oshirildi. "Farovon oila – jamiyat ravnaqining asosi" konseptual g'oyasi asosida oila institutini takomillashtirishda davlat organlari, fuqarolik jamiyatni institutlari hamda fuqarolarning yaqin hamkorligini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash konsepsiysi qabul qilindi.

Ma'naviy tahdid sifatida baholanayotgan g`arbona madaniyat, g`arbona yashash, g`arbona muomala, g`arbona hayat tarzi va hokazolar bizning muqaddas qo`rg`onimizga qanchalik salbiy ta`sir ko`rsatayotganini etarli darajada o`ylab ko`rmayapmiz. Oddiy hol sifatida qabul qilayotganimiz turli filmlar, seriallar, kliplar aslida shovqinli, jangari, toshbag`ir bir hayat tarzini bizga in`om etmayotganmikin. G`arb seriallarida kelinini erkalayotgan qaynota, turmush o`rtog`ini ochiqdan ochiq haqorat qilayotgan xotin yoki uning eriga xiyonat qilayotgan dugona, yarim yalang`och qizdan mammun ona, oiladan xalovat topmagan farzandning giyohvand moddalarga berilishi va boshqalar bizning farzandlarimiz tarbiyasiga, oilaviy muhitning nosog'lom bo'lishiga olib kelmasmikin. Aksariyat oilalar bunday hayat tarzini qanday bo`lsa, shundayligicha o`zlashtirmoqda. Ko`p hollarda, bizning

mentalitetimizga, yashash tarzimizga to`g`ri keladimi, yo`qmi, buni o`ylab ko`rmayapmiz. Natijada oilalar arzimas muammo oldida dosh berolmay, engil elpi, havoyi bir nafs qurbaniga aylanishmoqda. G`arb taklif etayotgan xudbinlik, toshbag`irlik, egoizm kabi illatlarni aksariyat insonlar yashashning mazmuni sifatida olmoqda. Buning oqibatida ayol kimningdir qo`g`irchog`iga aylanmoqda, go`daklar mehrdan mosuvo holda etimlikka mahkum etilmoqda. Bu kabi misollarni yana qator keltirish mumkin. Oila tinchligiga salbiy ta`sir ko`rsatayotgan bunday muammolar aslida har bir vijdonli insonning qalb og`riqlari emasmi? Yong`in chiqsa, ho`lu quruq barobar yonadi deganlaridek, oila buzilsa, yoinki farzand axloqsiz chiqsa, bиргина inson emas, atrofdagi insonlar, boringki, butun jamiyat hayotiga, uning farovonligiga, tinchligiga rahna solingan bo`ladi.

Shunday ekan, oila qo`rg`onini asrash, uning mustahkamligini ta`minlash uchun nimalarga e`tibor berish lozim. Bizningcha, hamma narsaning asosi ma`naviy etuklikka borib taqaladi. Axloqimizga tashqi jihatlar salbiy ta`sir ko`rsatayotgan ekan, ulardan himoyalanishning yagona yo`li ham ma`naviy etuklikdir. Ma`nan etuk inson atrofdagi har bir narsaga befarq qaray olmaydi. Ma`nan boy inson g`arbona yashash, g`arbona madaniyatni qanday bo`lsa, shundayligicha o`zlashtirmaydi, aksincha o`zbekona, milliy xususiyatlarimizga uyg`unlashtiradi. Oila deb atalmish muqaddas qo`rg`onni asrab avaylashga intiladi. Oilaning bir butunligini tashkil etayotgan er va xotin ma`nan boy, aqlan kamolga etgan bo`lsa, har qanday zararli ta`sirlarni oldindan ko`radi va oilasini himoya qila oladi. Ayni paytda, farzandlar tarbiyasiga ham shu mezonlardan turib yondashadi.

Oila mustahkamligini ta`minlashda tajribali, ko`pni ko`rgan otaxon va onaxonlar o`giti, purma`no nasihatlari, ularning ibratli hayat tarzi ham muhim o`rin tutadi. Shu jihatdan olganda, jamiyatda yuzaga kelayotgan yangi oilalarga ular turmushi ibrat bo`lsa, tajribasidan o`rganishsa, o`ylaymizki, oila yanada mustahkam va voyaga etayotgan farzandlar tarbiyalı bo`ladi. Binobarin, oila qo`rg`oni ma`naviy yetuklik va boy tajriba asosida yanada mustahkamlanib boriladi. Xalqimiz tarixiga nazar tashlaydigan bo`lsak, eng qimmatli an'analar: halollik, rostgo`ylik, or-nomus, sharm-u hayo, mehr-u oqibat, mehnatsevarlik kabi barcha insoniy fazilatlar, eng avvalo oilada shakllangan. Bugungi kunda ham ana shu an'analarini davom ettirib, o`zbek oilalari oilaning sog`lom iqlimi, ota-onaning bir-biriga mehri va hurmati sharoitida, oila bag`rida farzandlarini el-yurtining munosib o`g'il-qizlari bo`lib unib o'sishlarida astaoydil jon kuydirmoqdalar.. Xususan, oilani mustahkamlash va rivojlantirish, oilalarda ma`naviy-axloqiy muhitni yaxshilash, jamiyatda eng ibratli oilaviy an'analarni saqlab qolish hamda targ'ibot qilish masalalari bo'yicha hududlarda qator fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlar olib borilayotir. Misol uchun, zamonaviy muvaffaqiyatli oila mezonlari qanday bo`lishi kerak, degan mavzuda respublikamizning turli viloyatlarida 800 dan ortiq oilalarda ijtimoiy so`rovlar o'tkazilib, yakuniy natijalar bo'yicha zamonaviy oilaning modeli ishlab chiqildi. Tadqiqot o'tkazilgan oilalar vakillarining fikrlariga ko`ra, oiladagi sog`lom va barqaror, osoyishta

psixologik muhit; yuksak ma'naviy-axloqiy tarbiya; yetarli darajadagi iqtisodiy va maishiy sharoitlar; oila a'zolarining ta'lif yo'nalishida oliv ma'lumotlilik darjasи; sihat-salomatlikka alohida e'tibor qaratish zamonaviy namunali oilaning asosiy mezonlari qatoriga kiradi.

Respublikamizning uchta viloyatida olib borgan tadqiqotlarimizdan ma'lum bo'ldiki, oilalar barbod bo'lishiga quyidagi omillar asosiy sabab bo'lmoqda:

**Psixologik omil** — oiladagi og'ir psixologik muhit, o'zaro tushunishning yo'qligi, oiladagi doimiy nizolar, ota-onalarning yosh er-xotin hayotiga aralashishlari, yosh er-xotinlarni begonalashtirib qo'yish, bir-biriga befarqlik;

**Ijtimoiy omil** — ichkilikbozlik, farzandsizlik, er yoki xotinning salomatligi yaxshi emasligi;

**Ma'naviy-axloqiy omil** — er-xotindan birining uzoq vaqt davomidagi nikohdan tashqari aloqalari;

**Iqtisodiy omil** — turarjoy sharoitlarining qoniqarli emasligi, moddiy yetishmovchilik, ishsizlik, ernenig oilani ta'minlamasligi, mehnat migranti sifatida chet elga ketgan er-xotindan birining oilasi bilan aloqasi uzilgani, qarzlarni uzolmaslik bo'lib o'tmoqda.

Hozirgi kunda esa butun respublika bo'ylab mahalla fuqarolar yig'inlarining xotin-qizlar bilan ishslash va oilalarda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash bo'yicha mutaxassislari o'quvlari izchil davom ettirilmoqda. Oila instituti sohasida markazimiz bir qator davlat va nodavlat, xalqaro tashkilotlar bilan ham o'zaro hamkorlik aloqalarini mustahkamlamoqda. Ayni paytga qadar 20 dan ortiq tashkilotlar bilan Memorandum imzolanib, faol hamkorlik o'rnatildi.

Xulosa qilib aytganda yurtimizdagи so'nggi yillardagi o'zgarishlar, yangilanishlar silsilasida ajdoddlardan meros an'anaviy qadriyatlarimizni yanada boyitgan holda zamonaviy, namunali va farovon oilani barpo etish davlat siyo satining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. «Inson qadri uchun» tamoyili asosida olib borilayotgan islohotlar har bir oila va har bir insonning turmush farovonligini, fuqarolar totuvligini mustahkamlashdek ezgu maqsadlarga qaratilgani bilan alohida ahamiyat kasb etmoqda. Niyatimiz, har bir oila ma'naviy sog'lom, baxtli va xotirjam hayot kechirsin. Oila bag'rida ulg'ayayotgan farzandlar komil inson sifatida voyaga yetib, davlatimizning kuchiga kuch, qudratiga qudrat qo'shaversin. Zero, oila jamiyatning asosiy bo'g'ini ekan, uning mustahkam bo'lishi, farovonligi davlatimiz va jamiyatimiz ravnaqiga xizmat qilishi, shubhasizdir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- Kushmatova Maftuna Maxammadi qizi. Mavzu; Farzand tarbiyasida oilaviy munosabatlar va tarbiyaning ijtimoiy psixologik xususiyatlari. Bitiruv malakaviy ishi
- Usarova J.E.L.G. Boboxodjayeva va N. Yusupova "Aralash ta'lif pedagogik ta'lif klasterining zamonaviy yondashuvi sifatida" Science and Education 2.Special Issue 1 2021;286-295

3. Khalikova Parvina "Peculiarites of the pedagogical possibilities of using the uzbek national spiritual heritage in the activation of primary school students. Web of Sciencentific Research Journal. ISSN: 2776-0979, Volume 3, Issue 10, Oct 2022
4. Ziyaqulova Maftuna Shuhrat qizi and Feruza Hayitova Abdullayevna, "THE ROLE OF PICTURES IN THE FORMATION OF STUDENTS 'CREATIVE ABILITY IN LITERACY LESSONS", IEJRD - International Multidisciplinary Journal, vol. 6, no. 4, p. 3, Jul. 2021.
5. Ziyaqulova Maftuna Shuhrat qizi " Enhancing creativity in the process of developing studentso speech " The American Journal of Social Science and education Innovations (ISSN – 2689-100x) Published Published: June 28, 2021 | <https://doi.org/10.37547/tajssei/Volume03Иссye06-24> IMPACT FACTOR 2021: 11. 857 OCLC – 1121105668 Pages: 140-143 Америка
6. Ziyaqulova Maftuna Shuhrat qizi, Rakhmatova Hamida Ismatillo qizi, " Increasing Creativity by using Interactive methods in literacy teaching process" Analytical journal of education and development Science Box In Vol.1(2021): Analytical journal of education and development 52-54-betlar Тошкент
7. BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING AQLIY SALOHIYATINI HAMDA KREATIVLIGINI OSHIRISHDA MENTAL ARIFMETIKANING O'RNI M Ziyaqulova, S Ashurova, N Toshpulatova - Development and innovations in science, 2023
8. The importance of riddles in the development of students creativity in the learning process ZMS Qizi - Asian Journal Of Multidimensional Research, 2021
9. BOSHLANGICH SINF OQUVCHILARINING LUGATLAR BILAN ISHLASH JARAYONIDA KREATIVLIGINI OSHIRISH MSQ Ziyaqulova, HIQ Raxmatova - ... : Innovative, educational, natural and social sciences, 2021
10. Оллокурова, Ф. (2022). Социально-педагогическое значение формирования научно-исследовательской деятельности учеников начальных классов на основе концептизма. Общество и инновации, 3(10/S), 128–134. <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol3-iss10/S-pp128-134>
11. Toshpulatova Niyokhon Shavkatjonovna// A Creative Approach to Teaching Geometry in the Primary Grades//International Journal on Orange Technologies//48-53-bet
12. kizi, Z. M. S. . (2023). Technologies of Creative Approach to the Development of Speaking Competences of Primary Class Students. Web of Semantic: Universal Journal on Innovative Education, 2(4), 189–192. Retrieved from <http://univerpubl.com/index.php/semantic/article/view/1138>
13. Ziyaqulova, M., Ashurova, S., & Toshpulatova, N. (2023). BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING AQLIY SALOHIYATINI HAMDA KREATIVLIGINI OSHIRISHDA MENTAL ARIFMETIKANING O'RNI. Development and innovations in science, 2(3), 92-98.

14. Qizi, Z. M. S. (2021). Enhancing Creativity In The Process Of Developing Students' Speech. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 3(06), 140-143.
15. Qizi, Z. M. S. (2021). The importance of riddles in the development of students creativity in the learning process. Asian Journal Of Multidimensional Research, 10(6), 182-185.
16. Ziyaqulova, M. S. Q., & Xayitova, F. A. (2021). SAVOD O'RGATISH DARSLARIDA O'QUVCHILARNING KREATIV QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISHDA RASMLARNING O'RNI. Academic research in educational sciences, 2(7), 7-12.
17. Ziyaqulova, M. S. Q., & Raxmatova, H. I. Q. (2021). BOSHLANGICH SINF OQUVCHLARINING LUGATLAR BILAN ISHLASH JARAYONIDA KREATIVLIGINI OSHIRISH. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(4), 1503-1509.